

STRUCTURAL PROPERTIES OF PHYTOMORPHES

Muqimova Gulnora Rashidovna
A teacher, Bukhara Teacher Training Institution
[**gulrash82@mail.ru**](mailto:gulrash82@mail.ru)

Abstract. This article analyzes the names of plants and their usage in the language.

Key words. Phytomorphs, plants, flowers, name, semantic, syntactic, meaning.

Kirish. Har bir millatning, har bir xalqning o'zligini anglatuvchi milliy tili bo'ladi. Ana shu tilning bor g'o'zalligi va latofatini saqlagan holda kelajak avlodga yetkazish tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida,—"...Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehri qo'shiqlariga quloq tutsin", – degan edilar. Bu fikrlar bugungi o'zbek tilshunosligi oldiga tilimizning ichki tuzilishini ilmiy asosda chuqur o'rganish, boy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish singari qator vazifalarni qo'ymoqda. O'zbek tilining boyligi uning leksik qatlamidagi o'zgarishlar orqali amalga oshadi. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, o'zbek tilidagi o'simlik nomlaridir.

Asosiy qism. O'simlik nomlari qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha o'rganilib kelinmoqda. Yurtimizda o'simliklarning juda ko'p turi mavjud bo'lib, ularning mingga yaqini dorivor o'simlik sifatida o'rganilgan. O'zbek shevalarida va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydigan yoki ma'no jihatdan farqlanadigan juda ko'p fitonimlar mavjud bo'lib, ularning lisoniy jihatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilida o'simlik nomlari uch xil yo'l bilan yasaladi, ular morfologik, sintaktik va semantik usullardir. O'zbekiston hududida uchraydigan dorivor o'simlik nomlari tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, takror shakllarda uchraydi. Sodda so'z shaklidagi o'simlik nomlari ham ikki xil bo'ladi: soda tub va

soda yasama shaklidagi o'simlik nomlari. Sodda tub shaklidagi o'simlik nomlariga aloy, amorfa, anjir, anor, archa, behi, bodom, yong'oq, jiyda, jumrut, jut, asarun, ro'yan, yalpiz, piyoz, pista, rovoch, sabzi, sofora, sumax, toron, tok, tut, frangula, xantal, xapri, shaftoli, shivit, shirach, shumurt, eman, yantoq, o'rik, qayin, qarafs, qovoq, qoqi, g'o'za, kendir, kovul, lamium, limon, mavrak, malina, sano, sedana, turp, chakanda, cherkez, efedra kabilar kiradi. Ularda yasama so'zlik holati kuzatilmaydi, ular yasovchi qo'shimchalarsiz bo'lgani uchun sodda tub so'zlar hisoblanadi. Sodda yasama shakldagi o'simlik nomlari esa ma'lum bir yasovchi qo'shimchalar orqali yasaladi. Hozirgi vaqtga kelib ba'zi bir tub so'zlar hisoblangan o'simlik nomlari diaxronik yoki tarixan yasama nom bo'lgan bo'lishi mumkin. Masalan, mavrak, na'matak, marmarak, zupturum, katarantus, zanjabil, isiriq, sedana kabilar shular jumlasidandir. Bu o'simlik nomlarining ko'pchilik qismi tarixan – diaxronik nuqtai nazardan yasama ot shaklida yuzaga kelgan bo'lsa ham ularning yasamaligi hozirgi davr nuqtai nazaridan sezilmas holga kelib qolgandir. Sodda yasama shaklidagi o'simlik nomlari morfologik yo'l bilan yasalib, ular yasovchi qo'shimchani qabul qilishi orqali hosil qilinadi. Ularga: sachratqi, tuxumak, olcha, maymunjon, yulg'un, sebargi, kurak, shuvo, qizilcha, qulmoq, qichitqi, yetmak kabi o'simlik nomlari kiradi. Bu o'simlik nomlari tub so'zga grammatik shaklninh qo'shilishi orqali hosil qilinadi. Qo'shma so'z shaklidagi o'simlik nomlari ikki mustaqil so'zning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi va o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotadi. Qo'shma so'z shaklidagi o'simlik nomlari bir so'z turkum doirasida ham, har xil so'z turkumi doirasida ham birlasha oladilar. Shuning uchun ular ikki tarkibli qismdan tashkil topadilar. Ular ot +ot , sifat + ot, son +ot, ot + fe'l shakllarida uchrab keladi. [Ot + ot] shaklidagi qo'shma so'zlarga quyidagilar kiradi: moychechak, tirmoqgul, temirtikan, otquloq, makkajo'xori, ituzum, bo'tako'z, dalachoy, chilonjiyda, qashqarbeda, qoncho'p, momaqaymoq, arslonquyruq, qo'ziqyruq, qo'ziqorin, atirgul, bangidevona, gazako't, gulxayri, yeryong'oq, yerchoy, yerqo'noq, ittikanak, kanakunjut, limono't, otquloq, sovuno't, tillabosh, tikandaraxt, tomirdori, tog'jumrut, tugmachagul, cho'chqatikan, qo'ypechak, buyrakchoy, bo'rigul, dastarbosh, yerqalampir, baqayaproq singari misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. [Sifat + ot] shaklidagi qo'shma so'zlarga quyidagilar kiradi: semizo't, sassiqkovrak, sassiqalaf, qariqiz, qoraqobiq, achchiqmiya, shirinmiya, olabuta, qizilmiya, oqquray, oqtut, chuchukmiya, qiziltasma, qoraterak, qo'ng'ireman, ko'ktikan, oqkarrak, oqqaldirmoq, qoraandiz, oqzira, ko'knori kabi o'simlik nomlari kiradi. [Son + ot] shaklidagi qo'shma so'zlarga quyidagilar kiradi: uchbarg, qiqrbo'g'im, beshbarg, mingbosh, mingdevona singari o'simliklar kiradi. [Ot + fe'l] shaklidagi qo'shma so'zlarga esa quyidagilar kiradi: kungaboqar, qushqo'nmas, qontepar kabi o'simlik nomlari kiradi. [Taqlid so'z + ot] shaklidagi o'simlik nomlarini bildiruvchi qo'shma so'zlar kam uchraydi, ularga shildirbosh singari o'simlik nomlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek , ayrim o'simlik nomlari izofa shaklida ham keladi.

Bu shakldagi o'simlik nomlari ham [taqlid so'z +ot] shaklida yasalgan qo'shma o'simlik nomlariga o'xshab kam uchraydi. Masalan, zirai karmon kabi so'z birikmasi shaklidagi o'simlik nomlari ham uchraydi va ular ajratib yoziladi. Ular ko'pincha bitishuv yo'li bilan hosil bo'lgan o'simlik nomlarini tashkil qiladi. So'z birikmasi shaklidagi o'simlik nomlariga dorivor gulxayri, nippon dioskoreyasi, deltasimon dioskoreya, saflarsimon levzey, oddiy dastarbosh, pushti katarantus, katta ituzum singari o'simlik nomlari kiradi. O'zbek tilida o'simlik nomlari yuqorida aytib o'tganimizdek, morfologik, sintaktik va semantik usullar yordamida hosil qilinadi. Morfologik usul bilan yasalgan fitonimlar. O'zbek tilida qo'shimcha qo'shish orqali yasalgan o'simliklar nomlari kam o'rin oladi. Morfologik usul bilan yasalgan fitonimlar qayerga va nimaga nisbat berilishi kabi ma'nolar anglashiladi. Tub so'zlarga -cha, -qi, -ak, -g'un singari qo'shimchalar qo'shib, ular morfologik usul bilan yasalgan o'simlik nomlarini hosil qiladi. Masalan: olcha, sachratqi, tuxumak, yulg'un kabilar shular jumlasidandir. Morfologik usul bilan sodda yasama shakldagi o'simlik nomlari hosil bo'ladi. Sintaktik usul bilan yasalgan fitonimlar. O'zbek tilida o'simlik nomlarining yasalişhida sintaktik usul morfologik usulga qaraganda ancha ko'pchilikni tashkil ertadi. Sintaktik usul bilan qo'shma, juft, takroriy fitonimlar hosil qilinadi. Sintaktik usul bilan hosil qilingan fitonimlarni tashkil etgan komponentlar (qismlar) semantik – grammatik va talaffuz jihatidan birikib, yaxlit leksik butunlikka aylanib ketgan. Masalan: moychechak, bo'tako'z, ituzum, gulkaram, dalachoy, sariqbosh, kungaboqar, temirtikan, otquloq, makkajo'xori, sigirqyruq, semizo't va boshqa sintaktik usul bilan yasalgan o'simlik nomlari hisoblanadi. Sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma so'zlar tarkibidagi komponentlar qo'shib yoziladi. O'simlik nomlarining qancha so'zdan tashkil topishi, bog'lanish usullari, komponentlari orasidagi munosabatlar rang – barang bo'lib, o'zbek tilida so'zlarning bog'lanishi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi.

Semantik usul bilan yasalgan o'simlik nomlari. Bu usul bilan so'z yasalganda tilda mavjud bo'lgan so'z ma'nosining o'zgarishi natijasida leksema tarkibidagi leksik ma'nolar orasidagi aloqa uziladi va yangi so'z hosil bo'ladi. Semantik usul bilan yasalgan ikki ma'noli so'zning o'zaro birikishidan boshqa bir yangi ma'noning vujudga kelishi o'simlik nomlarining ichida ham uchraydi. Bunday o'simlik nomlariga ayiqtovon, devpechak, itburun, kiyikpanja, sigirqyruq, semizo't, tillabosh kabi o'simlik nomlarini aytib o'tishimiz mumkin. Semantik usul bilan yasalgan ikki ma'noli so'zning o'zaro birikishidan boshqa bir yangi ma'noning vujudga kelgani o'simlik nomlarining ko'pchiligida so'zlar orasidagi ma'no metafora usulida ko'chgan S.Usmonov metaforaga bag'ishlangan maqolasida shunday bir dalilni alohida ta'kidlab o'tgan edi: Qo'shma so'z sostavidagi komponentlar, ko'pincha, ko'chgan ma'noga ega bo'ladi. O'simliklarning nomlari bu jihatdan juda xarakterli. Masalan: bo'tako'z (gul), otquloq, echkiichak, echkisoqol, eshakmiya, chumchuqtil, ho'kiztili... itburun (o'simlik) va boshqalar

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili leksikasi, ya'ni lug'at

boyliги doimo taraqqiyotda bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida rivojlanadi va taraqqiy etadi. Ana shu o'zgarish va taraqqiyot natijasi o'laroq tilimizning leksik qatlami yangi birliklar bilan boyib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlar materiallari asosida): Filol. fanlari doktori ... dis. – Toshkent, 2004. – 262 b.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - Toshkent: Fan, 1985.
3. Mahmudov N., Mirtojiev M. Til va madaniyat. -T.: O'zbekiston, 1992. - 110 b.
4. Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: “Fan” 1975
5. Mengliyev B., Sayfullayeva R., M.Qurbonova Hozirgi o'zbek tili Toshkent, 2007.
6. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - T.: O'qituvchi, 1995. - 127 b.
7. Юлдашев М . М . Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи : Филол . фан . док ... дисс . автореф . – Тошкент , 2009. – 48 б .
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-jild. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tilidagi sinonimlarning izohli lug'ati.
10. Rajabboyevna A. N. Individualization in education and methods of improving teaching the english language //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 1. – C. 91-96.
11. Alimova N., Radjabova M. THE ROLE AND IMPORTANCE OF INDIVIDUAL EDUCATION IN THE SYSTEM OF ORGANIZATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 401-404.
12. Alimova N. R. IMPROVING TECHNOLOGY OF INDIVIDUALIZATION ON EDUCATION FOR STUDENTS OF TECHNICAL SPECIALTIES IN TEACHING ENGLISH //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 352-355
13. Rajabboyevna A. N. Organization of English Lessons Based on Advanced Pedagogical Techniques //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – C. 41-45.
14. Alimova N. POSSIBILITIES FOR INDIVIDUALIZING TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN A NON-LANGUAGE UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

1. Nozima A. Content And Methods Of Individualization Of Teaching Activities //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 50-53.